



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

YUSUFOVA IRODA G'ULOMJON QIZI

SamDU Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti IV bosqich talabasi

ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHLANG'ICH  
SINF O'QUVCHILARIGA DARS O'TISH YO'LLARI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada asosan o'qituvchining kreativ va tanqidiy taffakurini rivojlantirish va shu asosida boshlang'ich sinf darslarini tashkil qilish yo'llarini o'rganish, dars davomida turli innovatsion texnologiyalardan foydalanish, dars mazmunini yorituvchi metod va turli xil usullarni o'rganish.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, texnologiya, metod, kreativlik, tanqidiy tafakkur, usullar.

**Аннотация.** В данной статье основное внимание уделяется развитию творческого и критического мышления учителя и способам организации уроков начальных классов на его основе, использованию на уроке различных инновационных технологий, способу освещения содержания урока и различным методам.

**Ключевое слово:** инновации, технология, метод, творчество, критическое мышление, методы.

**Annotation.** This article focuses on the development of creative and critical thinking of the teacher and the ways to organize primary school lessons based on this

, the use of various innovative technologies during the lesson, the method of illuminating the content of the lesson and different methods.

**Key words:** innovation, technology, method, creativity, critical thinking, methods.

Bugungi kunda innovatsion rivojlanish yoʻlidan jadal borayotgan mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasi, maʼrifatli va yuksak maʼnaviyatli fuqarolarni yetishtirish davlatimiz siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biridir. Shuningdek, bizlar katta eʼtiborni yoshlarning kelajagiga qaratmogʻimiz lozim. Yosh avlodning taʼlim olishi ularning kelajagini belgilab beruvchi omil hisoblanadi, bugungi zamon nafasiga va talabiga javob beruvchi malakali kadrlarni tarbiyalash bosh maqsadimizdir, shunday ekan zamonaviy innovatsion texnologiyalar asosida boshlangʻich sinf oʻquvchilariga dars oʻtish yoʻllarini yanada kengroq oʻrganishimiz zarur, oʻqituvchining darsga kreativ va tanqidiy yondoshgan holda darsni tashkil qilishini oʻrganish bugungi kundagi dolzarb mavzular hisoblanadi

Innovatsiya soʻzi lotincha “novation” soʻzidan olingan boʻlib “yangilash”, “oʻzgartirish” degan maʼnolarni anglatadi, “in” “yoʻnalishda” deb tarjima qilingan. Soʻzma-soʻz “innovation” - “oʻzgarish yoʻnalishida”. Texnologiya yunoncha “techne” - “sanʼat”, “mahorat”, “logos” - “soʻz”, “bilim” soʻzlaridan kelib chiqqan, yaʼni sanʼat haqidagi fan. Bu tushuncha orqali har qanday jarayonda qoʻllaniladigan usullar va jarayonlar majmui tushuniladi. Innovatsion texnologiya – bu inson faoliyatining turli sohalarida taraqqiyotni taʼminlash va samaradorlikni oshirish uchun yangi narsalarni yaratish yoki mavjudini takomillashtirish texnikasi va jarayonidir.

“Pedagogik texnologiya” soʻz birligi – bu inglizcha “an educational technology” – “taʼlim texnologiyasi” iborasining aniq boʻlmagan tarjimasidir. “Pedagogik texnologiya” tushunchasi oxirgi paytlarda oʻqitish nazariyasida yanada kengroq qoʻllanilmoqda. Aynan “texnologiya” termini va uning “oʻqitish texnologiyasi”, “taʼlim texnologiyasi”, “taʼlimda texnologiya” kabi shakllariga pedagogik adabiyotlarda 300 dan ortiq taʼriflar berilgan.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Amaldagi usullar yangi avlod o'quvchilari bilan samarali ishlamaydi. Standartlashtirilgan ta'lim bolaning individual fazilatlarini va ijodiy o'sishga bo'lgan ehtiyojini hisobga olmaydi. Eski usullar bilan hal qilib bo'lmaydigan qator muammolarga qaramay, innovatsiyalarni joriy etishda qiyinchiliklar mavjud. O'qituvchi tushunishi kerakki, innovatsion usullarni joriy etish nafaqat o'quvchilarga materialni yanada samarali o'zlashtirishga yordam beradi, balki ularning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi. Lekin bu o'qituvchining o'z intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishiga ham yordam beradi.

Pedagogik innovatsiyaning turlari. Maktab ta'limida turli xil pedagogik innovatsion usullar qo'llaniladi.

Ta'lim jarayonida eng keng tarqalgan innovatsiyalar:

- axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalari(AKT);
- talabalarga yo'naltirilgan ta'lim;
- dizayn va tadqiqot faoliyati;
- o'yin texnologiyalari.

Ta'lim jarayonida qo'llaniluvchi bu innovatsion texnologiyalar o'quvchilarning bilim olish jarayonida tanqidiy va kreativ fikrlashini o'zlashtirilgan bilimlar asosida shakllantiradi. O'quvchi bilimlarni o'zlashtirish bilan birga, uni o'zining ijodiy kashfiyoti sifatida his etishi kerak. Tanqidiy fikrlashga mo'ljallangan ta'lim an'anaviy usuldan tubdan farq qiladi. Chunki an'anaviy usulda faqat o'qituvchining ma'lumot manbai bo'lib qolishi, o'quvchiga bilim berishda uning qiziqishi, bilimga munosabati va shu vaqtgacha o'quvchi egallagan bilimni hisobga olmaslik hozirgi kunda ta'limdagi qiyinchilikni keltirib chiqarmoqda. Didaktikadagi asosiy muammolardan biri ta'limda o'quvchining yetuklik darajasini hisobga olib ishlashdir. An'anaviy ta'limda dars o'tilganda o'quvchilarga ma'lumot berish va uni mustahkamlash asosiy vazifa hisoblangan. Pedagogik texnologiya bilim berishga shu bilimga o'quvchilarni qiziqtirishga, yangi bilimni bilishi avvalgi bilimlariga, hayotiy tajribasiga bog'lashga e'tibor qaratmoqda.

Tanqidiy fikrlash strategiyasi ta'limda quyidagi uch bosqichli modeli mavjud.  
Bular:

- Da'vat;
- Anglash;
- Fikrlash.

Boshlang'ich sinfda olingan bilim keyingi bosqich uchun poydevor vazifasini o'taganligi sababli ta'lim sifatini oshirish pedogoglar oldida turgan eng dolzarb masaladir. Shu maqsadda ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagoglar, xususan boshlang'ich sinf o'qituvchilari darslarda zamon ruhini, yangi nafas olib kirish orqali o'quvchilar bilimini rivojlantirish, ularning dunyoqarashini o'stirishga katta e'tibor qaratishlari talab etiladi.

Bugungi kun ta'limi o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborot texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berishga oid fikr mulohazalarimizni bayon etamiz.

“Takrorla” o'yini: O'yinni o'tkazishdan maqsad: O'quvchilarning topqirlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'quvchilarning lug'at boyligini boyitadi. Og'zaki nutqini rivojlantiradi. Mantiqiy fikrlashga o'rgatadi.

O'yinni o'tkazish jarayoni: O'quvchilar doira shaklida o'tiradilar. Ulardan biri biror bir hayvonning, masalan, tulkining nomini aytadi. Keying ishtirokchi tulki so'zini qaytaradi va unga boshqa hayvonning-ayiqning nomini qo'shadi. Uchinchi o'quvchi esa tulki, ayiq so'zlari yoniga yo'lbars so'zini qo'shadi. Har bir bola yuqorida aytilga hayvonlar nomini sanash bilan bir qatorda o'zi yana bir yangi so'zni qo'shishi kerak. Agar kimdir barcha hayvonlar nomini ayta olmasa yoki ularning nomini chalkashtirib yuborsa, o'yindan chiqadi. Hayvonlarning nomi ko'paygan sari ularning barchasini eslab qolish qiyinlashadi. Kimning xotirasi o'tkir bo'lsa, u g'olib bo'ladi.

Tabiat fani uchun: 2-sinf “Atrofimizdagi olam” darsligida “Bahorda o'simliklar hayoti” mavzusi bo'yicha quyidagicha:

1-o'quvchi: lolaqizg'aldoq

2- o'quvchi: lolaqizg'aldoq, boychechak



3- o‘quvchi: lolaqizg‘aldoq, boychechak, nok.

Oxirigacha davom ettirgan o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon darsining eng muhim xususiyatlari yangi o‘quv materialini va uni amalda qo‘llashni o‘zlashtirish bilan birga, ilgari o‘rganilgan narsalarni o‘zlashtirish, sintez qilish, takrorlash, mustahkamlash kabi malaka va ko‘nikmalarni o‘quvchilarda shakllantirish .

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, K.O.Matnazarova, M.K.SHirinov, S.Hafizov. Umumiy pedagogika. -T.: “Fan va texnologiya”, 2018.
2. A.A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. Darslik. O‘zzR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.-T.:”IQTISOD-MOLIYA”, 2011.
3. Boshlang‘ich sinflar uchun metodik qo‘llanmalar.
4. Qosimova K., Matjonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. Darslik – Toshkent, Noshir, 2009
4. [www.uz.m.wikipedia.org](http://www.uz.m.wikipedia.org)
5. [www.cyberleninka.ru](http://www.cyberleninka.ru)
6. [www.fayllar.org](http://www.fayllar.org)